

## MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARINI MILLIY TARBIYA VA MA'NAVİY SALOHİYATNI RIVOJLANTIRISHDA OILA TARBIYASINING AXAMIYATI.

**Yuldasheva Madina Rashidovna**

*Sharof Rashidov tumani 27-son DMTT direktori*

**Annotatsiya :** *Ushbu maqolada yoshlarni milliy tarbiya va ma'naviy salohiyatni rivojlantirishda oila tarbiyasining axamiyati xaqida fikr yuritilgan.*

**Kalit so'zlar:** *ma'naviy tarbiya, oilaviy qadriyatlar, oila ma'naviyati, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, oljanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, an'anaviy tadbirlar tizimi, pedagogik madaniyat.*

**Аннотация:** В статье рассматривается значение семейного воспитания в развитии национального воспитания и духовного потенциала молодежи.

**Ключевые слова:** духовное воспитание, семейные ценности, семейная духовность, доброта, толерантность, человечность, благородство, уважение к взрослым, уважение к детям, традиционная система деятельности, педагогическая культура.

**Annotation:** This article discusses the importance of family upbringing in the development of national education and spiritual potential of young people.

**Keywords:** spiritual education, family values, family spirituality, kindness, tolerance, humanity, nobility, respect for adults, respect for children, traditional system of activities, pedagogical culture.

*Bolalarimizning go'dakligidan ongi va tafakkurini  
to'g'ri shakllantirib bormasak, kelajakda  
yuksak saviyali, bilim va ma'naviyatga ega bo'lgan  
barkomol avlodni tarbiyalash qiyin kechadi.*

**Sh.Mirziyoyev**

Bugungi kunda maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama yetuk barkamol etib tarbiyalashda oila, maktabgacha ta'lim tashkiloti va maktab, mahalla hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi. Davlatimiz rahbari tomonidan tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiysi" dasturida homiladorlik davridan boshlab, 18 yoshgacha davom etadigan uzluksiz ma'naviy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi va boshqa mas'ullarning o'zaro samarali hamkorlik o'rnatish mexanizmini ishlab chiqish va hayotga joriy etish, tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda bolalar va o'quvchi yoshlarni ma'naviy tarbiyalashning asosiy yo'nalishlarini belgilab berish, aholining farzand tarbiyasi bo'yicha bilimlarini,

pedagogik madaniyatini oshirish, uzlusiz ma'naviy tarbiyani jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish muhim vazifa etib belgilangan.

Ma'lumki, oila davlatning, jamiyatning asosiy bo'g'ini sifatida bolalarning dunyoqarashi, xulq-atvori, ma'naviy- ma'rifiy kamolotiga, axloqiy tarbiyasiga ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Oilaviy ma`naviyatni yuksaltirishga shaxs sifatida xar bir oila a`zolarining muayyan ma`naviy dunyoga ega bo`lishi ular o`rtasidagi munosabatlar asosida vujudga keladi. Oilada ota va onaning ma`naviy fazilatlari er-xotinlik munosabatlarining sharqona an`analari insoniylik va axloqiylik darajasini belgilab beradi. Oila ma`naviy olami o`zaro hurmat, qadrlash, hamkorlik, murosasozlik, mehribonlik, rahmdillik, mehr-oqibat, sabr-bardoshlilik, insonsevarlik, olijanoblik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat kabi ma`naviy qadriyatlarni o`zida mujassamlashtirishi muhimdir. Bunday qadriyatlarning oilada e`zozlanishi, bunga amal qilinishi oilada shunday ma`naviy muhitni yaratadi. Bu esa o`sib kelayotgan avlod qalbi va ongi shakllanishida o`ta muhimdir. SHu asosda har bir oila a`zosining iste`dodi va salohiyati to`la ro`yobga chiqishi uchun sharoit yaratiladi. Natijada oila ma`naviyat maskani sifatida shakllanib boradi. Ma'naviy-axloqiy tarbiya asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Bizdagi ma'naviy-axloqiy tarbiya tizimi maktab hayotining axloqiy uslubini, shu jumladan o'quvchilarining o'quv, o'quv, maktabdan tashqari va ijtimoiy ahamiyatli faoliyatini tashkil etishga qaratilgan. Fuqarolik, vatanparvarlik, inson huquqlari, erkinliklari va burchlarini hurmat qilishni tarbiyalash., ma'naviy tarbiyaning bir qismi vatanparvarlik tarbiyasidir, uning maqsadi vatanparvarlik tuyg'usini, faol fuqarolik pozitsiyasini, yosh avlodga sadoqatni shakllantirish, Vatanga xizmat qilishga tayyorlikdir. Vatanparvarlik tarbiyasi an'anaviy tadbirlar tizimi va yangi ish shakllarini joriy etish orqali amalga oshiriladi.

Farzandlarimizning tarbiyalashning muhim shartlari oilalarning mustahkam, ma`naviy sog`lom asosda qurilganligi, ayniqsa, ota-onaning o`zi tarbiyalangan bo`lishidir. Ota-onalar farzandining bugungi muallimi hisoblanadi. Chunki farzandga til o`rganish, kitob o`qishga qiziqtirishi aynan oiladan boshlanadi. Hozirgi kunda farzandlarimizning har qanday insoniylikdan yiroqlashtiradigan illatlardan asrash uchun ularni ilm olishga, kitob o`qishga qiziqtira bilish lozim. Farzandni tarbiyasida har bir ota-onsa o`z mas`uliyatini har bir daqiqa his qilib yashashi lozim. Oila a`zolarining ma`naviy birligi yoshlarni har tomonlama kamol toptirishning darstlabki va asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Barkamol avlodni tarbiyalash mazmunida milliy qadriyatlarga sadoqat, jamiyatdagi tinchlik, xotirjamlikni saqlashga ongli munosabatda bo`lish, ijtimoiy ma`naviyatni yuksaltirishga intilish kabi

omillar tarbiyaviy ishlarda asosiy o‘rin egallaydi. Yoshlarni tarbiyalashda ular ongida, millat, milliy axloq, milliy g‘urur, milliy tarbiya, milliy g‘oya, Vatan tuyg‘usi, Vatan qayg‘usi, Vatan sog‘inchi va shu kabi tushunchalarini sindirib borish, ularning milliy dunyoqarashini kengaytirib borish tarbiya jarayoning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Tarbiyaviy ishlar jarayonida tarbiya uch narsaga ehtiyoj sezadi: iste‘dordga, ilmga va mashqqa degan edi, ulug‘ olim Arastu. Shunga asosan, yoshlarni milliy va ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashda bir qancha amal qilishlari lozimdir.

Yosh avlodni ma’naviy-ahloqiy jihatdan tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma’naviy-tarixiy merosimizga, umumbashariy qadriyatlargi, urf-odatlar va ananalarga tayanib, ongli shaxslarni intelektual salohiyatlari qilib tarbiyalash masalasi oilada ota-ona zimmasiga katta ma’suliyat yuklaydi. Bu jarayonda ota onalarimiz yurtimizda olib borilayotgan ma’naviy – ma‘rifiy tadbirlarga, ishlar madaniyat va istirohat bog‘larga ko‘proq olib borish talab etiladi. Bundan tashqari muzey, kinoteatr, teatr va boshqa madaniy-ma‘rifiy muassasalarga doimiy ravishda olib borish, shuningdek gazeta, jurnallar, internet, radio, ma’naviy –ma‘rifiy teleko‘rsatuvlarni ham oynai jahon orqali tomosha qildirish ham muhim o‘rin egallaydi. Oiladagi ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash maqsadida yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash, oiladagi nizoli holatlarni hal etishning huquqiy va pedagogik-psixologik asoslarini o‘rgatish, ajralishlarning oldini olishda “Ota-ona farzandini voyaga yetguniga qadar boqish va tarbiyalash uchun javobgar” prinsipi asosida “Ota-onalik — baxt va burch” targ‘ibot tadbirlarini tashkil etish ham yoshlarni milliy va ma’naviy barkamol qilib tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagagi bolalarni axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasbhunar egasi bo‘lgan vatanparvar yoshlarni yetishtirib berishda oilaviy tarbiya muhim o‘rin egallaydi. Bugungi kunda olib borilayotgan ma’naviy – ma‘rifiy ishlar – keng ommani ma’naviy va ma‘rifiy jihatdan tarbiyalash, ularning umumiyligi ma’naviy saviyasini yuksaltirish, ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish, bo‘sh vaqtolarini samarali o‘tkazishga ko‘mak beruvchi tadbirlar tizimini ifodalovchi tushunchaga aylangan bo‘lib u yosh avlodni ma’nan yuksak shaxs qilib tarbiyalashga yo‘naltirilganligi bilan xarakterlanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Sh.Mirziyoyev. O‘qituvchi va murabbiylar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagisi nutq. 30.09.2020-yil

2. Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiysi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 31-dekabrdagi 1059-son Qarori. Toshkent
3. Mavlonova R., Raxmonqulova N., Normuradova B. Tarbiyaviy ishlar metodlikasi. O'quv qo'lanma. - Toshkent, Tib-kitob. 2010.
4. [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)